SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAKNAZAROVA LUIZA ABDULOVNA

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.33.811.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xaknazarova Luiza Abdulovna
Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari (ingliz tili misolida) 5

Хакназарова Луиза Абдуловна
Лингводидактические основы совершенствования учебной деятельности студентов в кредитно-модульной системе (на примере английского языка) . 23

Khaknazarova Luiza Abdulovna
Linguodidactic foundations of improving students’ educational activities in the credit-module system (on the example of the English language) 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAKNAZAROVA LUIZA ABDULOVNA

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O‘QUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7180 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jumanazarov Umid Umirzokovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xoshimova Dildora Urinbayevna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Erkulova Feruza Meliqo‘ziyevna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning "15" Oktabr 2026-yil soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e–mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64-292-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" Oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" Oktabr dagi №_7_ raqamli reyestr bayonnomasi)

M.M. Maxmudova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo amaliyotida kredit-modul tizimi asosida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish, ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish hamda ta’lim natijalarini xalqaro standartlar asosida baholash pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitishda talabalarning o‘quv faoliyatini lingvodidaktik jihatdan samarali tashkil etish, auditoriya va mustaqil ta’limning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash, o‘quv topshiriqlarini talabalarning til darajasi va individual ehtiyojlariga mos loyihalash hamda o‘quv natijalarini kompetensiyaviy mezonlar asosida baholash mexanizmlarining yetarli darajada takomillashtirilmaganligi ta’lim sifati va o‘quv samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqish, zamonaviy o‘qitish modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida kredit-modul tizimi sharoitida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning o‘quv faoliyatini lingvodidaktik yondashuv asosida tashkil etish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, natijaga asoslangan o‘qitish, CEFR mezonlari, raqamli ta’lim texnologiyalari, adaptiv o‘qitish, sun’iy intellekt vositalari asosida rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talabalarning auditoriya va mustaqil ta’lim faoliyatini uyg‘unlashtirish, akademik mustaqillikni rivojlantirish, reflektiv o‘rganish, til kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, o‘quv yuklamasini samarali boshqarish hamda individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida generativ sun’iy intellekt vositalari asosida talabalarning o‘quv faoliyatini individuallashtirish, o‘quv analitikasi yordamida o‘quv natijalarini monitoring qilish, kredit-modul tizimida lingvodidaktik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy baholash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini kredit-modul tamoyillari asosida takomillashtirish, ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Shu nuqtayi nazardan kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini lingvodidaktik asosda takomillashtirish, ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta’limni

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

samarali tashkil etish metodikasini ishlab chiqish, o‘quv faoliyatini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik va sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro miqyosda S.Adam, C.Adelman, J.Reichert, D.Berd[2] kabi olimlar tomonidan kredit-modul tizimining nazariy-metodologik asoslari; kredit tizimida til o‘qitishning didaktik imkoniyatlari M.Canale, M.Swain, L.F.Bachman[3]; mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyalari esa H.Holec, D.Little, P.Benson[4] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida kredit-modul tizimi va chet tillarni o‘qitish metodikasi muammolari L.S.Vygotskiy, P.Y.Galperin, A.N.Leontyev, I.A.Zimnyaya, N.D.Galskova, Ye.I.Passov, A.N.Shukin kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[5].

---

[2]Adam S. An Introduction to Learning Outcomes: A Consideration of the Nature, Function and Position of Learning Outcomes in the Creation of the European Higher Education Area. – London: Routledge, 2006. – 98 p.; Adelman C. The Bologna Process for U.S. Eyes: Re-learning Higher Education in the Age of Convergence. – Washington: Institute for Higher Education Policy, 2009. – 168 p.; Reichert S., Tauch C. Trends IV: European Universities Implementing Bologna. – Brussels: European University Association, 2005. – 126 p.

[3]Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1-47; Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 408 p.

[4]Holec H. Autonomy and Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – 87 p.; Little D. Learner Autonomy: Definitions, Issues and Problems. – Dublin: Authentik, 1991. – 64 p.; Benson P. Teaching and Researching Autonomy in Language Learning. – London: Longman, 2001. – 274 p.

[5]Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1999. – 352 с.; Гальперин П.Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий. – Москва: Просвещение, 2006. – 278

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasiga oid masalalar J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, Sh.S.Ashurov, L.T.Axmedova, O.V.Kon, G.T.Maxkamova, N.X.Avliyakulov, Y.AAliyeva, M.A.Aripova , I.V.Morxova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova[6] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, N.D.Majidova va N.M.Ashurovalarning kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish[7]ga bag‘ishlangan dissertatsiyalari mavjud bo‘lsada, ularning ishlarida lingvodidaktik asoslar va reflektiv mexanizmlar (peer review, o‘z-o‘zini baholash) maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Chet tillarini o‘qitish metodikasi, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, kredit-modul tizimida ingliz tili ta’lim yo‘nalishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quv faoliyatni takomillashtirishning lingvodidaktik jihatlari hanuzgacha yetarli o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Chet tilini o‘qitishning innovatsion metodlari va usullari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kredit-modul tizimida talabalarning ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslarini aniqlash, shu asosda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik ta’minot, hamda lingvodidaktik model ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishinng lingvodidaktik asoslarini aniqlash;

с.; Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2005. – 352 с.; Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Просвещение, 1991. – 222 с.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2009. – 336 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.; Щукин А.Н. Лингводидактика и методика обучения иностранным языкам. – Москва: Филология, 2018. – 448 с.

[6]Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English language teaching methodology.-Tashkent, 2015.-336 p.; Ахмедова Л.Т., Кон О.В. Методика преподавания русского языка.-Ташкент: Фан ва технология, 2013.– 240с.; Махкамова Г.Т. Формирование межкультурной компетенции студентов филологического вуза: Дисс. … докт.пед.наук. –Тошкент, 2011. -156 с.; Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология.-Ташкент: Издательство "Алокачи", 2009. -148 с.; Алимов Ф.Ш., Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш. – Ташкент, 2018.- 156 с.; Алиева Ю.А. Приёмы обучения диалогической и монологической речи на занятиях по иностранному языку в средней школе//Проблемы современного образования.-2013.-№3.-С.141-143; Арипова М.А. Психологические основы обучения неродному языку//Ta’lim muammolari.-2013.-№ 1.-С.38., Морхова И.В. Развитие профессионально-творческих способностей будущего педагога вуза. Методические рекомендации. – Т.: ТГПУ имени Низами, 2008.- 64 с.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Jizzax, 2021. – 89 b.; Rustamova A.E. Oliy ta’lim muassasalarida chet tilini pedagogic diagnostika metodikasi orqali o‘qitishni takomillashtirish konsepsiyasi (ingliz tili misolida) (DSc) diss. – Toshkent, 2025. – 283 b.

[7]Majidova N.D. Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Ped. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 140 b.; Ashurova N.M. Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini rivojlantirish metodikasi (ingliz tili misolida): Ped. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – 145 b.

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi olti (maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli, texnologik, reflektiv va natijaviy-baholash) blokli lingvodidaktik modelni ishlab chiqish va uning reflektiv komponentlari samaradorligini ilmiy asoslash;

ishlab chiqilgan lingvodidaktik modelni talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatiga tadbiq texnologiyasini hamda baholash mezonlari va monitoring jadvallarini ishlab chiqish;

talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish va uning kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini tajriba-sinovdan o‘tkazish, hamda matematik-statistik asosda isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta’lim tashkilotlarida kredit-modul tizimi sharoitida ingliz tilini o‘qitish talabalarining o‘quv faoliyatini tashkil etish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari (model, metodika, texnologiya) va uni amalga oshirishning mazmuni, usullari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtiruvchi *lingvodidaktik tizim* ishlab chiqilib, mazkur tizimning *lingvodidaktik komponentida* o‘quv natijalari, mustaqil ta’lim, kredit yuklamasi, kommunikativ topshiriqlar va formativ baholashning o‘zaro integratsiyasini *sinergik uyg‘unlashtirilgan* tarzda ta’minlovchi didaktik mexanizmlar aniqlashtirilgan;

talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi olti blokli lingvodidaktik model ishlab chiqilib, mazkur modelning reflektiv komponentida individual o‘quv trayektoriyasini boshqarish mexanizmlarining o‘zaro ta’sir dinamikasiga ko‘ra rekursiv-uzviy samaradorligi ilmiy asoslangan;

lingvodidaktik modelni talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga tatbiq etish samaradorligini baholashning mezon-indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, mustaqil ta’lim natijalarini dinamik monitoring qilishning *real vaqt rejimidagi* prognostik-adaptiv algoritmi taklif etilgan;

kredit-modul tizimi sharoitida *mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi* kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari, reflektiv faoliyat va formativ baholash mexanizmlari *komplementar integratsiyalash* orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitishda talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan lingvodidaktik asoslar tizimlashtirildi va o‘quv jarayoniga tavsiya etilgan;

olti blokdan iborat lingvodidaktik model va uning mustaqil ta’limga tatbiq etilgan texnologiyasi ishlab chiqilib, baholash mezonlari va monitoring jadvallari bilan birgalikda sinovdan o‘tkazilgan;

talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi interfaol metodlar (FSMU, debat, “6 xil qalpoq”, keys-study, loyiha metodi), SI platformalar (SkyLingo, Praktika), mobil ilovalar (ELSA Speak, Quizlet, Duolingo) va immersiv texnologiyalar (ImmerseMe, Virtual Speech) majmuini qo‘llash orqali takomillashtirildi, hamda amaliyotga joriy etildi va samaradorligi matematik-statistik tahlillar (Student t-mezoni, Fisher mezoni, nisbiy samaradorlik koeffitsiyenti) asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari nazariy jihatdan takomillashtirilgani, ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy, kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan hamda mustaqil ta’limga asoslangan yondashuvlarni integratsiyalovchi konseptual yondashuv ishlab chiqilgani, shuningdek, kredit-modul tizimi talablariga mos o‘quv faoliyatini tashkil etishning lingvodidaktik modeli hamda uning metodik ta’minoti yaratilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan lingvodidaktik model, o‘quv-metodik ta’minot, kredit-modul tizimiga mos mustaqil ta’lim topshiriqlari, baholash mezonlari va metodik tavsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning ingliz tili bo‘yicha kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil o‘quv faoliyati, akademik faolligi hamda ta’lim natijalarini oshirish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini ta’minlash imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kredit-modul tizimida talabalarning ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtiruvchi lingvodidaktik tizim ishlab chiqilib, mazkur tizimning lingvodidaktik komponentida o‘quv natijalari, mustaqil ta’lim, kredit yuklamasi, kommunikativ topshiriqlar va formativ baholashning o‘zaro integratsiyasini sinergik uyg‘unlashtirilgan tarzda ta’minlovchi didaktik mexanizmlar aniqlashtirilganligiga oid ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalardan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2026-yil 17-fevraldagi 671/02-son ma’lumotnomasi).

Natijada, talabalarning ingliz tilini o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi amaliyotda tasdiqlangan;

talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi olti blokli lingvodidaktik model ishlab chiqilib, mazkur modelning reflektiv komponentida individual o‘quv trayektoriyasini boshqarish mexanizmlarining o‘zaro ta’sir dinamikasiga ko‘ra rekursiv-uzviy samaradorligi ilmiy asoslanganligiga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar “Teaching language through different ages. Teaching language in special courses” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2025-yil 21-maydagi 161-sonli buyrug‘i asosida nashr etilgan). Natijada, talabalarning individual o‘quv trayektoriyasini boshqarish mexanizmlari takomillashtirilishiga erishilgan;

lingvodidaktik modelni talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga tatbiq etish samaradorligini baholashning mezon-indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, mustaqil ta’lim natijalarini dinamik monitoring qilishning real vaqt rejimidagi prognostik-adaptiv algoritmi taklif etilganligiga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021GR3106-raqamli “English Access Microscholarship Program” (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 4-iyundagi 04-04-1/288-son ma’lumotnomasi) loyihasi doirasida samarali qo‘llanilgan;

kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari, reflektiv faoliyat va formativ baholash mexanizmlari komplementar integratsiyalash orqali takomillashtirilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Jizzax viloyat teleradiokanalining 2026-yil 24-fevral kungi “Subhidam” musiqiy dam olish dasturi, hamda 2026-yil 4-may kuni Jizzax radiokanali “Yoshlar hududi” gibrid dasturini tayyorlashda amaliy qo‘llanilgan (Jizzax viloyati teleradiokanalining 2026-yil 15-maydagi 404/13-10-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalangan holda tayyorlangan teleko‘rsatuvda kredit–modul tushunchasi, funksiyalari, ta’lim oluvchilarning bilimini oshirishdagi shaffoflik, mobil almashinuvga qaratilganligi, dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi bo‘lgan lingvodidaktik model, metodik ta’minoti va uning o‘quv faoliyatini takomillashtirishdagi ahamiyati yoritib, OAV materiallarining mazmuniy va ta’sirchanlik darajasini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 10 ta, shu jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 4 ta maqola, hamda xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning “Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida kredit-modul tizimining pedagogik mohiyati va oliy ta’lim jarayonidagi funksional imkoniyatlari, lingvodidaktikaning nazariy asoslari va chet tilini o‘qitishning metodologik tamoyillari, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning didaktik xususiyatlari hamda ingliz tilini o‘qitishda o‘quv faoliyatini takomillashtirishning zamonaviy ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobining birinchi faslida, kredit-modul tizimining pedagogik mohiyati va oliy ta’lim jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur bo‘limda kredit-modul tizimining tarixiy shakllanishi, “modul” va “kredit” tushunchalarining pedagogik mohiyati hamda, tizimning ta’lim jarayonidagi asosiy funksional imkoniyatlari (ta’lim jarayonini individuallashtirish, baholash tizimining shaffofligi, mustaqil ta’limni tashkil etish, akademik mobillikni ta’minlash, raqamlashtirish, mehnat bozori talablariga moslashuvchanlik va ta’lim sifatini kafolatlash) yoritilgan. Xususan, ushbu tizim talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish (50-60%) va GPA asosida baholash imkoniyatlari yaratishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, ingliz tilini o‘qitish kontekstida kredit-modul tizimi talabalarning til ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish, xalqaro standartlar asosida baholash va akademik mobillikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, kredit-modul tizimining funksional imkoniyatlari alohida guruhlarga ajratilgan: ta’lim jarayonini individuallashtirish (shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish), baholash tizimining shaffofligi va xolisligi (formativ va summativ baholash, GPA), talabalar mustaqil ishini tashkil etish (mustaqil ta’lim ulushi 40–60 foizgacha), akademik mobillikni ta’minlash, raqamlashtirish va AKT integratsiyasi (HEMIS, Moodle, Google Classroom), mehnat bozori talablariga moslashuvchanlik, ta’lim sifatini kafolatlash (CEFR, xalqaro sertifikatlar) kabi yo‘nalishlarda tahlil qilingan (1- rasmga qarang):



1-rasm. Kredit-modul tizimidagi funksional imkoniyatlar

Shu bilan birga, kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quv natijalari, mustaqil ta’lim, kredit yuklamasi, kommunikativ topshiriqlar va formativ baholash o‘rtasidagi sinergik uyg‘unlik mexanizmi tizimning umumiy samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil akanligi, mazkur mexanizm sinergetika nazariyasining qoidalariga asoslanib, besh komponentning o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini kuchaytiruvchi asosiy ta’sirini belgilab, ushbu mexanizm talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish va kredit-modul tizimi talablariga mos ravishda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini berishi aytilgan.

Ilmiy tadqiqotning birinchi bobning ikkinchi faslida, tadqiqotda ushbu tamoyillar **“**reflektivlik**”** tamoyili bilan to‘ldirildi. S.Krashenning “monitor modeli” va “tushunarli kirish materiali” g‘oyasi kredit-modul tizimiga moslashtirilib, modulli topshiriqlar va talabaning affektiv filtrini pasaytiruvchi baholash mexanizmlari asosida talqin etildi.

Ingliz tilini o‘qitish yondashuvlarining evolyutsiyasi (an’anaviy metodlardan kommunikativ yondashuv, CLIL, TBL va post-metod davr konsepsiyasigacha) til o‘qitish metodikasi jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatildi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari zamonaviy tadqiqotlarda olti komponent – lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, diskursiv, strategik, sotsiomadaniy komponentlardan iborat ekanligi aniqlandi. CEFR darajalari xalqaro standartlar asosida ingliz tilini o‘qitish va baholash imkonini berishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (mobil ilovalar, LMS platformalar, onlayn

kurslar) esa ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etishning ajralmas vositasiga aylanganligi qayd etildi.

Reflektiv o‘qitish nazariyalari (J.Dewey, D.A.Schön, J.Mezirow) va metakognitsiya (J.H.Flavell, A.L.Brown) talabalarning o‘z-o‘zini baholash va o‘quv faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi. Prognostik-adaptiv o‘qitish nazariyalari (B.F.Skinner, L.V.Zankov, V.V.Davydov), pedagogik prognostika va sun’iy intellekt asosidagi Learning Analytics (o‘quv analitikasi) yondashuvlari kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini bashorat qilish va adaptiv boshqarish imkonini beruvchi metodologik asos sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot ishining birinchi bobning uchinchi faslida mustaqil o‘quv faoliyatining pedagogik mohiyati, uning turlari (auditoriya doirasidagi va auditoriyadan tashqari) tahlil qilingan. Ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun mustaqil ta’lim yo‘nalishlari (til ko‘nikmalarini rivojlantirish, leksik va grammatik materialni o‘zlashtirish, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish) belgilangan. Mustaqil ta’limni tashkil etishning besh bosqichi – tayyorgarlik (motivatsion), rejalashtirish, faoliyat (protsessual), nazorat-baholash va refleksiv bosqichlar asoslab berilgan. Mustaqil ta’lim samaradorligini ta’minlovchi didaktik shartlar (maqsad aniqligi, mazmunning mosligi, o‘quv-metodik ta’minot, nazorat tizimi, AKTdan foydalanish) hamda o‘qituvchining talabalar mustaqil ishini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, maslahatchi va nazoratchi sifatidagi roli ko‘rsatilgan (2-rasmga qarang):



2-rasm. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning didaktik tamoyillari


Shuningdek, mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, individuallashtirish, moslashuvchanlik, nazorat qilinuvchanlik, metodik ta’minlanganlik tamoyillariga asoslanishi; ingliz tilini o‘qitishda mustaqil

ta’lim quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi: til ko‘nikmalarini mustaqil rivojlantirish (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish), leksik va grammatik materialni mustaqil o‘zlashtirish, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish aytilgan. Dissertatsiyaning birinchi bobining yakunida keltirilgan xulosalarda kredit-modul tizimining pedagogik mohiyati, lingvodidaktikaning nazariy-metodologik asoslari, ingliz tilini o‘qitish yondashuvlari evolyutsiyasi va mustaqil ta’limni tashkil etishning didaktik xususiyatlari umumlashtirilgan hamda olti blokli lingvodidaktik modelni ishlab chiqishning nazariy asoslari haqida bayon etilgan. Shu asnoda, model o‘quv natijalari, mustaqil ta’lim, kredit yuklamasi, kommunikativ topshiriqlar va formativ baholashning sinergik uyg‘unligini ta’minlovchi lingvodidaktik tizim sifatida ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“**Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik metodik ta’minoti**”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ingliz tilini o‘qitishda talabalar o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik modeli, talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi zamonaviy metod va texnologiyalar, mustaqil ta’limni lingvodidaktik asosda tashkil etish texnologiyasi hamda o‘quv faoliyatini baholash mezonlari va kompetensiyaviy monitoring tizimi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining birinchi faslida, kredit-modul tizimi sharoitida ingliz tilini o‘qitishda talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirishning olti blokli lingvodidaktik modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, model kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va kommunikativ yondashuvlar asosida qurilgan bo‘lib, o‘z ichiga maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli, texnologik, reflektiv va natijaviy-baholash bloklarini oladi. Modelning ilmiy yangiligi – reflektiv blok tarkibining kiritilganligi: o‘z-o‘zini baholash, peer review, refleksiv kundalik, feedback tahlili, shaxsiy o‘sish portfelidir. Model tizimlilik, maqsadga muvofiqlik, uzluksizlik, individuallashtirish, faollik, kommunikativ yo‘naltirilganlik, reflektivlik, nazorat qilinuvchanlik va metodik ta’minlanganlik tamoyillariga asoslanadi.

Modelning samarali ishlashi uchun motivatsion, tashkiliy, metodik, texnologik, reflektiv va nazorat-baholash pedagogik shartlari hamda tizimlilik, maqsadga muvofiqlik, uzluksizlik, individuallashtirish, faollik, kommunikativ yo‘naltirilganlik, reflektivlik, nazorat qilinuvchanlik, metodik ta’minlanganlik tamoyillari belgilandi. Modelning ilmiy yangiligi – kredit-modul tizimi va ingliz tilini o‘qitish kontekstida ilk bor reflektiv blok va peer review mexanizmini o‘z ichiga olgan 6 blokli tuzilma hamda “reflektivlik” tamoyilining model tamoyillari tarkibiga kiritilganligidir. Reflektiv blokning rekursiv-uzviy mexanizmi ilmiy asoslandi. Ushbu umexanizm 5 bosqichli siklik jarayon sifatida modellashtirilib, uning matematik ifodasi hamda grafik sxemasi ishlab chiqildi. Mexanizm talabaning o‘z faoliyatini takroriy tahlil (rekursiylik) qilish va har bir natijani keyingi bosqichga bog‘lashi (uzviylik) orqali individual o‘qish trayektoriyasini samarali boshqarish imkonini berishi izohlandi. (3-rasmga qarang):



3-rasm. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalar o‘quv faoliyatini takomillashtirishning lingvodidaktik modeli

Tadqiqot ishining II bobining ikkinchi faslida, talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi interfaol metodlar – FSMU, debat, “6 xil qalpoq”, keys-study, loyiha metodi, shuningdek “Design Thinking”, “Fishbowl”, “Jigsaw”, “Think-Pair-Share”, “Round Table” kabi metodlar tahlil qilingan. AI platformalar (SkyLingo, Praktika), mobil ilovalar (ELSA Speak, Quizlet, Duolingo) va immersiv texnologiyalar (ImmerseMe, Virtual Speech) majmuining kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan Mobile Learning, Microlearning, Gamification, Flipped Classroom, Project-Based Learning, Adaptive Learning vositalarining o‘quv jarayonini interaktivlashtirish va individuallashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Metod va texnologiyalarni tanlash mezonlari (maqsadga muvofiqlik, mavzu mazmuniga moslik, talabalar darajasiga moslik, kredit-modul tizimi talabalariga moslik, texnik imkoniyatlar, integratsiya imkoniyati) belgilangan.

Metod va texnologiyalar komplementar integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi – ya’ni ular bir-birini to‘ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi tarzda uyg‘unlashtirilishi asoslandi. Misol uchun: “Debat” metodi peer review va refleksiv kundalik bilan bog‘lab qo‘llanildi; AI platformalari esa formativ baholash natijalariga asoslanib adaptiv tavsiyalar berildi.


Bundan tashqari, yozma ishlar, taqdimotlar, loyihalar, testlar va reflektiv topshiriqlar uchun mezon-indikatorlar ishlab chiqildi. 6 ta kommunikativ kompetensiya (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, diskursiv, strategik, sotsiomadaniy) bo‘yicha mezon va indikatorlar jadvali tuzildi. Haftalik monitoring tizimi tashkil etilib, talabalarning o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkoniyati yaratildi. Monitoring natijalariga asoslanib, talabalarning keyingi bosqichdagi o‘zlashtirish darajasini prognoz qilish va adaptiv tuzatish kiritish imkonini beruvchi prognostik-adaptiv algoritm taklif etildi.

Tadqiqotning ikkinchi bobining uchinchi faslida, ishlab chiqilgan olti blokli lingvodidaktik model asosida mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyalari yoritib berilgan. Mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi besh bosqichda – tayyorgarlik (motivatsion), rejalashtirish, faoliyat (protsessual), nazorat-baholash va refleksiv bosqichlarda amalga oshiriladi. Blum taksonomiyasining 6 darajasi asosida mustaqil ta’lim topshiriqlari tizimi ishlab chiqilgan. Reflektiv mexanizmlar (o‘z-o‘zini baholash varaqlari, refleksiv kundalik, peer review rubrikalari, feedback tahlili, shaxsiy o‘sish portfeli) orqali talabalarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Ingliz tili o‘qituvchisining mustaqil ta’limni tashkil etishdagi vazifalari – rejalashtirish, material tanlash, topshiriqlar ishlab chiqish, yo‘riqnomalar tayyorlash, maslahat berish, nazorat qilish va baholash – aniq belgilangan. Ushbu bobning yakunida keltirilgan xulosalarda ishlab chiqilgan olti blokli lingvodidaktik modelning tuzilishi va mexanizmi, talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metod va texnologiyalar majmui (jumladan, AI platformalar, mobil ilovalar, immersiv texnologiyalar) hamda mustaqil ta’limni tashkil etishning metodik tizimi (reflektiv mexanizmlar va baholash mezonlari bilan boyitilgan) umumlashtirilgan. Modelning asosiy yangiligi – kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitish kontekstida ilk bor reflektiv blok va peer review

mexanizmini o‘z ichiga olgan 6 blokli tuzilma, “reflektivlik” tamoyili hamda olti kompetensiya bo‘yicha baholash mezonlari va statistik asoslangan samaradorlik ko‘rsatkichlari kiritilganligi ekani ta’kidlangan. Modelning samarali ishlashi uchun motivatsion (talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish), tashkiliy (mustaqil ta’limni aniq rejalashtirish), metodik (o‘quv-metodik ta’minotni yaratish), texnologik (zamonaviy AKTdan foydalanish) va nazorat-baholash (shaffof baholash mexanizmlari) shartlari ta’minlanishi zarur. Model tizimlilik, maqsadga muvofiqlik, uzluksizlik, individuallashtirish, faollik, kommunikativ yo‘naltirilganlik, nazorat qilinuvchanlik va metodik ta’minlanganlik tamoyillariga asoslanadi.

